Xulosa. Informatika o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish strategiyalari ta’lim tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu strategiyalar o‘qituvchilarning nafaqat pedagogik bilimlarini, balki innovatsion fikrlash, texnologik yondashuvlar, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘qituvchilarni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga rag‘batlantirish va ularning kasbiy mahoratini oshirish ta’lim sifatini yanada yuqori darajaga olib chiqadi [8;12-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). M.R.Fayziyeva, D.M.Sayfurov, R.K.Atamuratov va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik, Toshkent, 2021, 19–23-betlar.

(2). B.J.Boltayev va boshqalar. Informatika. T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017, 88-bet.

(3). М.В.Гаврилов, В.А.Климов. Информатика и информационные технологии. Учебник для вузов, Москва, “Юрайт”, 2023, 355 с.

(4). Мансуров Т.З.У. (2022). Классификация видов самостоятельных работ учащихся на уроках математики по дидактическому признаку. Science and Education, 3(6), с. 1078–1084.

(5). Мансуров Т.З.У. (2022). Самостоятельная работа на уроках математики -это средство творческого развития учащихся. Science and Education, 3(6), с. 1116–1121.

(6). Мансуров Т.З.У. (2022). Психолого-дидактические условия развития речемыслительной деятельности учащихся в процессе обучения математике. Science and Education, 3(6), с. 1109–1115.

(7). Мансуров Т.З.У. (2022). Целесообразные уровни самостоятельности. Science and Education, 3(6), с. 1129–1135.

(8). Бахронов, Б.И.У., & Мансуров, Т.З.У. (2021). Вычисление существенного спектра обобщенной модели Фридриха в системе MAPLE. Наука, техника и образование, 2–2 (77), с. 35–38.

(9). Mansurov, T. (2024). Improving science teaching efficiency using the h5p plug. Solution of social problems in management and economy, 3(5), с. 231–235.

(10). Mansurov, T. (2024). Ta’limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayonidagi o‘ziga xos afzalliklari. “Педагогическая акмеология” международный научно-методический журнал, 9(17).

(11). T.Z.Mansurov (2024). Informal ta’limning o ‘qitish samaradorligini oshirishdagi roli. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(54), с. 232–237.

(12). Xolmurodov, B. (2022). Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalar fanini o‘qitishning interfaol metodlari: “keys-stadi” metodi. Buxoro davlat Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Shukurov Zoxid Kuchkorovich (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri (PhD); shukurovzoxid742@gmail.com),
Fayzullayeva Zarnigor Muxtor qizi, Rashidova Lobar Zoxid qizi, Abdullayeva Sarvinoz Eshqobil qizi (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabalari)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSIDA KENG QO‘LLANILADIGAN KOMMUTATIVLIK, ASSOTSIATIVLIK VA DISTRIBUTIVLIK QONUNLARINI O‘RGATISH METODI

Annotasiya. *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik amallar qonunlarini tushuntirishning sodda talqinini keltirish, ayirish amalini qo‘shish amali orqali tasniflashni tushuntirish, har qanday sonni nolga bo‘lib bo‘lmasligi shartini sodda misollar yordamida isbotlab tushuntirish mumkinligini ko‘rsatish. Qiziqarli jadval yordamida o‘quvchida shakillanishi kerak bo‘lgan qo‘shishning kommutativligi, bir sonni ikkita qo‘shiluvchi yig‘indisi orqali ifodalanishini va ayirma bilan yig‘indi orasidagi bog‘lanishlarni o‘rgatish. Bundan tashqari, ko‘paytirishning kommutativlik va distributevelik qonunlarini misollar yordamida o‘quvchiga qanday yetkazish mumkinligini tushuntirish.*

Kalit so‘zlar: *yig‘indi, ayirma, ko‘paytma, bo‘linma, kommutativ, assotsiativ, distributiv.*

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ УЧИТЕЛЯМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КОММУТАТИВНЫХ, АССОЦИАТИВНЫХ И ДИСТРИБУТИВНЫХ ЗАКОНОВ, КОТОРЫЕ ЧАСТО ИСПОЛЬЗУЮТСЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Аннотация. *Задача статьи–донести до учителей начальной школы простую интерпретацию объяснения законов коммутативных, ассоциативных и распределительных операций, пояснить классификацию операций вычитания и операций сложения, показать, что любое число не может делиться на ноль. Все это объяснено на конкретных примерах. Показано, как с помощью интересной таблицы можно научить школьника коммутативности сложения, представлению числа суммой двух слагаемых, связям вычитания и сложения. Кроме того, на примерах можно объяснить, как донести до ученика коммутативные и распределительные законы умножения.*

Ключевые слова: *сложение, вычитание, умножение, деление, коммутативное, ассоциативное, распределительное.*

METHODS OF TEACHING COMMUTATIVE, ASSOCIATIVE AND DISTRIBUTIVE LAWS TO PRIMARY SCHOOL TEACHERS, WHICH ARE OFTEN USED IN MATHEMATICS LESSONS

Annotation. *Bringing a simple interpretation of explaining the laws of commutative, associativity and distributive operations to elementary school teachers. To explain the classification of the subtraction operation by the addition operation, to show that any number cannot be divided by zero can be proved and explained using concrete examples. With the help of an interesting table, to teach the student the commutativeness of addition, the representation of a number by the sum of two addends, and the connections between subtraction and addition. In addition, explaining how the commutative and distributive laws of multiplication can be conveyed to the student with the help of examples.*

Key words: *addition, subtraction, multiplication, division, commutative, associative, distributive.*

Kirish (Introduction). Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematika darsini o‘quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirishda matematika darsida keng qo‘llaniladigan kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik, boshqacha qilib aytganda o‘rin almashtirish, gruppalash va taqsimot qonunlarini sodda tarzda o‘rganishi keltirilgan bo‘lib, uning natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini, ongli yondashuvini va o‘zidagi aqliy kuchga ishonchini oshirishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Birinchi sinfdayoq bolalar natural sonlar ustida bajariladigan to‘rt arifmetik amal bilan tanishadi. Bu amallar qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lishdir.

Ammo shuni nazarda tutish kerakki, qo‘shish va ko‘paytirish amallari natural sonlar to‘plamida har doim bajariladi, ayirish va bo‘lish amallari har doim ham bajarilavermaydi. Masalan,

$$2-5=-3; \qquad 2:5=\frac{2}{5}.$$

Chunki biz boshlang‘ich ta’lim haqida so‘z yuritmoqdamiz, shu sababli bu vaqtda bolalar manfiy sonlarni ham, kasr sonlarni ham bilmasliklarini hisobga olishimiz kerak. Shu sababli ham ular bu amallarni bajara olmaydilar. Boshqacha aytganda, natural sonlar to‘plamining o‘zida, undan tashqariga chiqmay turib $2-5; \quad 2:5$ amallar bajarilmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga shuni ta’kidlaymizki, birinchi sinfdan boshlab, to beshinchi sinfdagi rastional sonlar maydonini tuzishga qadar, tobora kengayib borayotgan sonlar zapasi amallar qonunlari: kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik bilan bog‘liq olib boriladi. Odatda, bu qonunlarni o‘rin almashtirish, gruppalash va taqsimot qonunlari deyiladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$a+b=b+a; \qquad a\cdot b=b\cdot a;$$

$$a+(b+c)=(a+b)+c; \qquad a\cdot(b\cdot c)=(a\cdot b)\cdot c;$$

$$a+0=a; \qquad a\cdot(b+c)=a\cdot b+a\cdot c;$$

$$a+(-a)=0. \qquad a\cdot 1=a;$$

$$a\cdot\frac{1}{a}=1,\ a\neq 0.$$

Ratsional sonlarning hammasi (butun, musbat, manfiy va kasr) bu xossalarga ega. Shu sababli sonlarning bu to‘plamini ratsional sonlar maydoni deymiz.

Endi har qanday sonning nol bilan ko‘paytmasi nolga teng ekanligi haqidagi teoremaning isboti bilan keltiramiz.

Teorema. Ixtiyoriy ratsional a sonining 0 ga ko‘paytmasi yana 0 ga teng. Boshqacha aytganda, $a\cdot 0=0$ tenglik har doim o‘rinli.

Isbot. a va b sonlarning ko‘paytmasini qaraymiz va bu ko‘paytmani quyidagicha yozamiz $a\cdot b=a\cdot(b+0)$ chunki $b+0=b$. Ammo distiributivlik qonuniga asosan, $a\cdot(b+0)=a\cdot b+a\cdot 0$. Bu tenglamaning ikkala qismidan $a\cdot b$ ayrilsa va soddalashtirilsa, ya’ni,

$$a\cdot(b+0)-a\cdot b=a\cdot b+a\cdot 0-a\cdot b$$

$$a\cdot b+a\cdot 0-a\cdot b=a\cdot b+a\cdot 0-a\cdot b$$

$$a\cdot 0=a\cdot 0$$

$$a\cdot 0=0.$$

tenglikni hosil qilamiz, shuni isbotlash talab qilingan edi.

Endi ayirish amalini qo‘shish amali orqali ta’riflashni va muhim qoidalardan biri har qanday sonni nolga bo‘lib bo‘lmasligini keltiramiz.

1. Ayirish amalini qo‘shish amali orqali ta’riflash.

Ta’rif. Umuman, $a=b+c$ tenglik nimani bildirsa, $a-b=c$ tenglik ham shuni bildiradi.

Bu ta’rif ayirishning barcha xossalarini qo‘shishning xossalari yordamida isbotlash imkonini beradi. Misol sifatida

$$a-b=a+(-b)$$

ekanligini isbotlaymiz.

Buni isbotlash uchun

$$[a+(-b)]+b=a$$

ekanligini ko‘rsatish kerak. Haqiqatdan ham,

$$[a+(-b)]+b=a+[(-b)+b]=a+[b+(-b)]=a+0=a.$$

Isbotlangan $a-b=a+(-b)$ tenglik ayirish amali qo‘shish amaliga keltirilishini bildiradi.

2. Har qanday sonni nolga bo‘lib bo‘lmaslik sharti.

Biz $a:b=c$ tenglik $a=b\cdot c$ ekanligini etiborga olib ushbu isbotni keltiramiz. Masalan, $6:2=3$ chunki $2\cdot 3=6$. Ammo $8:0$ ifodani birorta ham songa tenglab bo‘lmaydi. Agar shunday a son mavjud bo‘lganida edi, u holda $8=0\cdot a=0$ bo‘lgan bo‘lar edi. Ko‘rinib turibdiki, bunday bo‘lishi mumkin emas. Mana shundan ko‘rinadiki, $8:0$ “bo‘linmaga” hech bir ma’no berib bo‘lmaydi. Endi, agar $0:0=a$ bo‘lsa, u holda $0=0\cdot a$ bo‘lishi kerak. Ammo $0=0\cdot a$ tenglikda a har qanday son bo‘lishi mumkin. Ya’ni $0\cdot 11$ ham nolga teng $(0\cdot 11=0)$, $0\cdot 25$ ham nolga teng $(0\cdot 25=0)$, $0\cdot 0$ ham nol-ga teng $(0\cdot 0=0)$. Shu sababli $0:0$ amali aniq bir natija bera olmaydi. Shunday ekan, $a\neq 0$ bo‘lsa, $a:0$ ifodaga birorta ham ma’no berib bo‘lmaydi, $0:0$ amali ham ma’noga ega emas. Demak, hech bir sonni nolga bo‘lib bo‘lmaydi.

Biz endi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga quyidagi qiziqarli jadvalni taklif qilib, bu jadvalni o‘quv-chilarga o‘rgatishda qo‘shishning kommutativlik qonuni qo‘lanilishini, biror sonni ikkita qo‘shiluvchi or-qali ifodalash mumkinligini va ayirma bilan yig‘indi orasidagi bog‘lanishlarni o‘rgatishni teltiramiz.

1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	3	4	5	6	7	8	9	10
3	4	5	6	7	8	9	10	
4	5	6	7	8	9	10		
5	6	7	8	9	10			
6	7	8	9	10				
7	8	9	10					
8	9	10						
9	10							
10								

Bu jadval bilan ishlash qiziqarli. Jadvalning satr va ustunlari qanday tuzilganini, har qanday ustun nimadan boshlanishini, nega ustundagi biror son o‘zidan oldingi sondan bir birlik katta, nega ba’zi satrlar uzun, ba’zilari esa qisqa ekanligini qarab chiqish mumkin. Bundan tashqari, diagonallarga e’tibor berish mumkin, bunda diagonalga jadval ichida takrorlanuvchi sonlar joylashganini ko‘rish mumkin. Nega 4 soni jadval ichida uch marta takrorlanadi? Chunki $4=1+3$, $4=2+2$, $4=3+1$. Ulardan ikkitasi qo‘-shishning kommutativlik qonunini ifodalab turibdi. 6 soni esa bu jadval ichida besh marta uchraydi, chunki

$6=1+5=5+1=2+4=4+2=3+3$. Bu qoida esa sonni ikkita qo‘shiluvchiga ajratish masalasi bo‘lib, juda muhimdir.

Shunisi juda muhimki, bu jadvaldan sonlarni ayirishda ham foydalanish mumkin. Masalan, $10-4=6$, chunki 10 soni 4-satr bilan 6-ustun kesishgan joyda turibdi. Ya’ni, $10=4+6$, shu sababli ham $10-4=6$. mana, shunday qilib, birinchi sinf o‘quvchisiga qo‘shish bilan ayirish orasidagi bog‘lanishni o‘rgatish mumkin.

Hozirga qadar biz birinchi o‘nlik Ichida qo‘shish haqida gapirdik, boshqacha aytganda, shunday qo‘shish haqida gapirdikki, unda har qaysi qo‘shiluvchigina emas, balki yig‘indi ham undan katta bo‘lmaydi. Ammo birinchi sinf o‘quvchisining xazinasi tez ko‘payadi, u 1 dan 10 gacha bo‘lgan har qanday sonni qo‘shishni, shuningdek, nolni qo‘shish va ayirishni o‘rganadi. Shu bilan u $a+0=a$ qoidasining mazmunini egallaydi, bundan tezda $a-0=a$ ekanini ham o‘zlashtirib oladi.

Shuni eslatish kerakki, ba’zi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu qoidani “hech nimani qo‘shish” va “hech nimani ayirish” deb ta’riflashadi. Bunday sharhlash juda xatodir. Bunday sharh o‘quvchini nol – bu hech nima, degan fikrlashga olib keladi. Ammo nol matematikada muhim rol o‘naydigan sondir. Buning o‘rniga bolalarga shuni xotirada eslab qolishni taklif qilish kerakki, nolni qo‘shish qo‘shiluvchini o‘zgartirmaydi: agar biror songa nol qo‘shilsa, natijada shu sonning o‘zi hosil bo‘ladi. Ana shuning o‘zi birinchi sinf o‘quvchisiga $a+0=0$ aksiomasi haqida gapirib berishdir.

Birinchi o‘nlik chegarasidan chiqib, o‘quvchilar eng oldin 0 dan 10 gacha bo‘gan har qanday sonni qo‘shishni o‘rganadilar. Bunda yig‘indi 0 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni qabul qiladi. Natijada qo‘shish jadvali endi kattaroq bo‘ladi. Masalam, ularga $7+5=12$ ekanligini qanday tushuntirish mumkin? Bu yerda sizga qo‘shishning assotsiativligi yordam beradi. 7 ga birdaniga 5 ni emas, oldin 3 ni, so‘ngra 2 ni qo‘shish kerak:

$$7+5=7+(3+2)=(7+3)+2=10+2=12.$$

Endi esa bolaning qo‘lidan hech nima kelmasin, deylik. Masalan, u $8+6$ qancha bo‘lishini hisoblay olmasin. Siz uni bunday savollar ketma-ketligi bilan to‘g‘ri yo‘lga solib borishingiz mumkin:

$8+6$ – bu 10 dan tatami?

10 hosil bo‘lishi uchun 8 ga nimani qo‘shish kerak?

Shundan keyin siz 6 ni 8 ga birdaniga emas, bo‘laklab qo‘shishni, oldin 2 ni, so‘ngra qolganlarini qo‘shishni taklif qilasiz. Ushbu hosil bo‘ladi.

$$8+6=8+(2+4)=(8+2)+4=10+4=14.$$

Agar siz bola bilan bu aqliy ishlar ketma-ketligini har bir qiyinchilikka uchragan holatda chidam bilan takrorlasangiz, u buni asta-sekin o‘zlashtiradi va unda o‘zlashtirish ongli ravishda bajarilishiga erishasiz.

Xuddi shunday o‘quvchilarga ayirish amalini ham tushuntirish mumkin. Masalan,

$$14-6=14-(4+2)=(14-4)-2=10-2=8.$$

Endi ko‘paytirish haqida. Ko‘paytirish birxil sonlarni qo‘shishni qisqa yozish sifatida kiritiladi:

$$7\cdot 4=7+7+7+7,\quad 1\cdot 6=1+1+1+1+1+1.$$

Sonning birga ko‘paytmasi, masalan, $5\cdot 1$ alohida anilashni talab qiladi, chunki $5\cdot 1=5$ ifodada hech qanday yig‘indi yo‘q, bir xil qo‘shiluvchilarni qo‘shish ham yo‘q. Biz, ta’rifga ko‘ra, $a\cdot 1=a$ deb va agar sonlardan biri (masalan, b) birga teng bo‘lsa, ko‘paytirishning kommutativlik qonuni $a\cdot b=b\cdot a$ ni tushuntirish oson. Chunonchi,

$$4\cdot 1=1\cdot 4=1+1+1+1=4.$$

Distiributivlik qonuni ham shunga o‘xshash tushuntiriladi. Masalan,

$$8\cdot(3+2)=8\cdot 3+8\cdot 2=(8+8+8)+(8+8)=24+16=40.$$

Tahlil va natija (Analysis and results). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yishi ko‘p uchraydi. Bular: $a\cdot 0=0$ tenglikning isbotini o‘rganmaganligi, $a=b+c$ faqat yig‘indini yoki $a-b=c$ faqat ayirmani alohida ishlatishi, ularni bir-biriga bog‘lashni keltirmasligi, har qanday sonni nolga bo‘lib bo‘lmasligini isbotini o‘rganmaganligi. Natijada o‘quvchilarda matematika fanini o‘zlashtirish va mustaqil qarorlar qabul qilishda bo‘shliqlar yuzaga kelish mumkin. Bu maqolada yu-

qaridagi kamchiliklarga yechimlar keltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi ularni o‘zlashtirsa natijada uning matematika darsini tushuntirishdagi bilimlari yanada chuqurlashadi.

Xulosa (Conclusion). Kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik amallar qonunlarini tushuntirishning sodda ko‘rinishi keltirildi. Ayirish amalini qo‘shish amali orqali ifodalash ta’rifi yozildi. Har qanday sonni nolga bo‘lib bo‘lmasligi sharti ko‘rib chiqildi. Qiziqarli jadval yordamida o‘quvchida shakillanishi kerak bo‘lgan qo‘shishning kommutativlik, bir sonning ikki qo‘shiluvchi yig‘indisi orqali ifodalanishi va ayirma bilan yig‘indi orasidagi bog‘lanishlar o‘rganildi. Bundan tashqari, ko‘paytirishning kommutativlik va distributivlik qonunlarini sodda masalalar yordamida o‘quvchiga qanday yetkazish mumkinligi tushuntirildi. Bu natijalarni o‘rgangan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematik bilim va ko‘nikmalarini yanada shakillantirishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati (References):

[1]. V.G.Boltyanskiy, G.G.Levitas. “Hujumda matematika”. T., “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1983.

[2]. “Fizika matematika va informatika”, ilmiy-uslubiy jurnal, 4-son, T., “Sharq”, 2010.

[3]. О.Разумовская. «Математика для младших школьников. 1–4 классы”, № 3, FGOS, 2018.

[4]. Shell Education. “180 Days of Math for Fifth Grade”. Publishing, 2011.

Aqimova Nodira Rajabboyevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Xorijiy filologiya fakulteti tyutori, mustaqil tadqiqotchi; g-mail: nodiraakimova27@gmail.com)

OLIY TA’LIM MUASSASASI TYUTORI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari o‘rganiladi. Tyutorning talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’siri, ularning o‘quv motivatsiyasini oshirishda va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar va psixologik metodlar asosida tyutorlik faoliyatining mazmuni va ahamiyati yoritilib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar tavsiya qilinadi. Shuningdek, tyutorlik tizimining talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikativ jarayonga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tyutor, oliy ta’lim, pedagogik yondashuvlar, psixologik metodlar, o‘quv motivatsiyasi, shaxsiy rivojlanish, kommunikatsiya, ta’lim jarayoni, kasbiy kompetensiyalar, samaradorlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЬЮТОРА В ВУЗЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты эффективной организации тьюторской деятельности в высших учебных заведениях. Анализируется роль тьютора в личностном и профессиональном развитии студентов, повышении их учебной мотивации и формировании навыков самостоятельного мышления. Освещаются содержание и значимость тьюторской деятельности на основе современных педагогических подходов и психологических методов, а также предлагаются рекомендации по повышению эффективности учебного процесса. Дополнительно исследуется влияние тьюторской системы на коммуникативный процесс между студентами и преподавателями.*

Ключевые слова: *тьютор, высшее образование, педагогические подходы, психологические методы, учебная мотивация, личностное развитие, коммуникация, учебный процесс, профессиональные компетенции, эффективность.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL DIRECTIONS OF ORGANIZING THE ACTIVITY OF THE TUTOR OF THE INSTITUTION OF HIGHER EDUCATION

Annotation. *This article examines the pedagogical and psychological directions for organizing tutoring activities in higher education institutions effectively. It analyzes the tutor's role in influencing students' personal and professional development, enhancing their learning motivation, and fostering independent thinking skills. The content and significance of tutoring activities are highlighted based on modern pedagogical approaches and psychological methods, with recommendations provided to improve the efficiency of the educational process. Additionally, the article explores the impact of the tutoring system on the communicative process between students and teachers.*

Keywords: *tutor, higher education, pedagogical approaches, psychological methods, learning motivation, personal development, communication, educational process, professional competencies, efficiency.*